HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

O‘ZBEK OILALARIDA GENDER MUNOSABATLARINING - IJTIMOIY-PEDAGOGIK, TARIXIY ASOSLARI

Narzullayeva Guli Nozimjonovna

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.22479243

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek oilalarida gender munosabatlarining ijtimoiy-pedagogik va tarixiy asoslari tahlil qilinadi. O‘zbek jamiyatida oila, nikoh, erkak va ayolning ijtimoiy rollari, ularning tarixan shakllangan vazifa va majburiyatlari milliy qadriyatlar, urf-odatlar hamda an’analar bilan bog‘liq holda yoritiladi. Xususan, erkakning oilani moddiy ta’minlovchi, “boquvchi” sifatidagi an’anaviy funksiyasi, ushbu ijtimoiy talabning uning ruhiy holati, ijtimoiy mavqeyi va xulq-atvoriga ta’siri tahlil etiladi. Shuningdek, oilaviy va qarindoshlik munosabatlarida moddiy mas’uliyat, to‘y-marosimlar, o‘zaro ijtimoiy majburiyatlar hamda jamoatchilik fikrining erkak va ayol hayotiga ta’siri ochib beriladi. Maqolada bozor iqtisodiyoti, globallashuv, zamonaviy axborot texnologiyalari va ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida o‘zbek oilalaridagi an’anaviy gender stereotiplarining transformatsiyaga uchrayotgani alohida ta’kidlanadi. Xotin-qizlarning ta’lim, mehnat va ijtimoiy hayotdagi faolligi ortib borishi natijasida oiladagi gender rollari ham yangicha mazmun kasb etayotgani ko‘rsatib beriladi. Gender tushunchasini faqat ayollar muammosi yoki feminizm bilan bog‘lash bir tomonlama yondashuv ekani asoslanib, u erkak va ayolning jamiyatdagi huquqlari, imkoniyatlari, mas’uliyati va ijtimoiy mavqeyini o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganishga xizmat qiluvchi ilmiy kategoriya sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: gender, gender munosabatlari, o‘zbek oilasi, oila-nikoh munosabatlari, erkakning ijtimoiy roli, ayolning ijtimoiy roli, gender stereotiplari, milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analar, ijtimoiy mas’uliyat, oilaviy tarbiya, globallashuv, ijtimoiy transformatsiya, gender tengligi.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-педагогические и исторические основы гендерных отношений в узбекских семьях. Рассматриваются семья, брак, социальные роли мужчин и женщин, а также исторически сформировавшиеся обязанности и модели поведения в контексте национальных ценностей, традиций и обычаев узбекского общества. Особое внимание уделяется традиционной роли мужчины как основного кормильца и материально ответственного члена семьи, а также влиянию данной социальной установки на его психологическое состояние, социальный статус и поведение. Анализируются материальная ответственность в семейно-родственных отношениях, участие в семейных и общественных обрядах, взаимные обязательства родственников и влияние общественного мнения на жизнь мужчин и женщин. Отмечается, что развитие рыночных отношений, процессы глобализации, распространение современных информационных технологий и социальные преобразования приводят к изменению традиционных гендерных стереотипов в узбекской семье. Расширение участия женщин в образовании, трудовой деятельности и общественной жизни способствует трансформации их роли в семье и обществе. В статье обосновывается необходимость рассматривать понятие «гендер» не только в контексте женской проблематики или феминизма, но и как научную категорию, позволяющую комплексно исследовать права, возможности, обязанности, ответственность и социальное положение мужчин и женщин.

Ключевые слова: гендер, гендерные отношения, узбекская семья, семейно-брачные

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

отношения, социальная роль мужчины, социальная роль женщины, гендерные стереотипы, национальные ценности, традиции и обычаи, социальная ответственность, семейное воспитание, глобализация, социальная трансформация, гендерное равенство.

Abstract: This article examines the socio-pedagogical and historical foundations of gender relations in Uzbek families. It analyzes family and marital relations, the social roles of men and women, and the historically established responsibilities and behavioural patterns shaped by national values, customs, and traditions in Uzbek society. Particular attention is paid to the traditional role of men as the primary breadwinners and providers of the family and to the impact of this social expectation on their psychological well-being, social status, and behaviour. The study also discusses material responsibilities within family and kinship relations, participation in traditional ceremonies, reciprocal social obligations, and the influence of public opinion on the lives of both men and women. It is emphasized that the development of a market economy, globalization, modern information technologies, and broader social transformations are gradually changing traditional gender stereotypes within Uzbek families. The increasing participation of women in education, employment, and public life is contributing to the transformation of established gender roles and family relationships. The article argues that gender should not be interpreted solely as a women's issue or associated exclusively with feminism. Rather, gender is considered a scientific category that enables a comprehensive analysis of the rights, opportunities, responsibilities, social roles, and status of both men and women in society.

Keywords: gender, gender relations, Uzbek family, family and marital relations, social role of men, social role of women, gender stereotypes, national values, customs and traditions, social responsibility, family education, globalization, social transformation, gender equality.

Bugungi kunda, zamonaviy jamiyatda globallashuv va integrasion jarayonlarning keng ko'lamda quloch otishi, yangi muammolarni keltirib chiqara boshladi. Jamiyatshunos tadqiqotchilar tomonidan izchil va chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar qatoriga bugun hech ikkilanmasdan "***gender"*** jarayonlarni ham kiritish mumkin.

Sotsiologlar harakatimiz natijalari orasidagi tafovutga, ya'ni shu harakatlarimiz orqali vujudga keladigan kutilmagan natijalarga diqqat bilan e'tibor qaratadilar. Chunki bu holat jamiyat taraqqiyoti to'g'risida muammoga aylanib ulgurgan holatlarni aniqlashga yordam beradi. Biz tomonimizdan ilgari surilayotgan ***"gender"*** mavzusi bugungi kunga kelib muammoli vaziyat sifatida XX asr oxirlaridek shov-shuvli ahamiyat kasb etmasa-da, o'zbeklar jamiyati va ularning turmush tarzida ushbu masalaning ijtimoiy jihatlarini sotsiolog pozisiyasidan turib ilmiy tahlil etish bizga yetarlicha o'rganish huquqini beradi.

O'zbeklar turmush tarzida oila-nikoh munosabatlari musulmon Sharqi qoidalari asosida belgilab berilgan qoidalar mukammal holatda uzoq davrlardan beri ishlab kelayotganligi bilan ma'lumdir. Aynan shunday keng ko'lamdagi jarayon sifatida e'tirof etilishi mumkin bo'lgan narsa – bu erkak kishining o'z oilasi ustida qayg'urishi, ya'ni "boquvchi" funksiyasini ado etishligi bilan bog'liqdir. O'g'il bolalarga yoshligidan o'z oilasini ta'minlovchi shaxs sifatida tarbiya berib kelingan.

Ammo erkaklar uchun ishlab chiqilgan va an'anaga aylantirilgan "bo'ynidagi funksiya (vazifa)ni bajarish" uning ijtimoiy-ruhiy va ma'naviy hayotida qanday ahamiyat kasb etadi? Hamma vaqt ham erkak o'z zimmasiga yuklatilgan «funksiya»ni ado eta oladimi? Agar u o'z zimmasiga yuklatilgan funksiyani ado eta olmasa unga jamiyat, qolaversa qarindosh-urug'lar, yaqin do'stlar va ayniqsa turmush o'rtog'i qanday munosabat bildiradi? O'z funksiyasini ado eta olmagan erkak taqdiri oxir-oqibatda qanday yakun topadi? Bu kabi savollarshodasi orqali biz qaysidir bir shaklda o'zbeklar

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

turmush tarzidagi gender mavzusining bir jihatiga javob topsak ajab emas.

Ko'p holatlarda "erkak funksiyasi" deyilganda G'arb dunyosi va G'arb ta'siri doirasida fikr yuritadgan odamlar biologik-fiziologik omilni tushunishlari tabiiy. Ammo o'zbek oilasi munosabatlarida tushuniladigan erkak funksiyasi asosan turmush tashvishlari va moddiy imkoniyatlarni udum yoki an'ana sifatida olib qarovchi "erkak" sifatida gavdalanadi. Ammo ushbu funksiya jamiyat hayotida hyech qachon oshkora e'tirof etilmaydi, yoki "kishining ichki "siri" sifatida qadrlanadi. Har bir erkak zimmasiga yuklatilgan holatlardan biri bu, qanday qilib bo'lsa ham "qo'shimcha daromad" qilish iste'dodiga ega ekanligi bilan alohida ahamiyat aks etadi. Agar erkak kishi qaysidir holatda qo'shimcha daromad qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa – hech qanday ogohlantirishsiz jamiyat a'zolari tomonidan "noshudlikda" ayblanadi. Uning jamiyat ijtimoiy tizimida egallab turgan lavozimi va mavqyeidan unumli foydalana ololmasligi esa, bemalol jamiyat a'zolari, xususan, uning qavmi-qarindoshlari, yaqin do'st-ulfatlari, qo'ni-qo'shnilar va hattoki xotini, ba'zida farzandlari tomonidan ham ayblash uchun to'liq asos vazifasini o'tay oladi. «Falonchi ham sizga o'xshagan odam, siz qilgan ishni qiladi, kasbi ham siznikiga o'xshash, ammo u haqiqiy erkak... ».

Ko'rinib turganidek "erkak" funksiyasi yana moddiy imkoniyatlarga kelib taqaladi. Oila yoki mahalla va universitet muhitidan kelib chiqib olingan tarbiya turlicha bo'lganligi uchun, hamma ham o'zida qo'shimcha daromad qilish layoqatini shakllantira olmaydi. Buning ustiga zamon o'zgarishi va bozor iqtisodiyoti jarayonida odamlarda tabiiy ehtiyojlarning oshib ketishi kishidagi mavjud imkoniyatni to'liq namoyon qilishga imkon bermaydi.

O'zbeklar turmush tarzida yoshlarning jamiyat hayotida erta nikoh qurish asosida turmush faoliyatiga olib kirish ham mazkur masalaning asosiy muammolaridan biri sanaladi. Oila qurilgach, erkak oldida nafaqat o'z oilasini ta'minlashi, balki «o'z bo'ynidagi qarzni uzish» masalasi ham yotadi. Ya'ni endi u o'zini tarbiyalagan, voyaga yetkazgan va to'y qilib uni oilali qilgan ota-onasini ham holidan xabar olib turishi "ham qarz, ham farz" hisoblanadi. Shuningdek, o'z avlodidagi boshqa aka-ukalar to'y- hashamlarida oilaning boshqa a'zolari bilan barobar ishtirok etishi va unga qilingan sarpo-suruqlardagi qarzni oshig'i bilan qaytarishi lozim yoki yangi turmush qurayotganlarni qarz qilishi kerak bo'ladi. Avval faqat o'z qavmu qarindoshlari doirasida oldi-berdi ishlarida qatnashgan bo'lsa, endi turmush o'rtog'i (er yoki xotin) tomonidagi qarindosh-urug'lari bilan ham faol munosabatga kirishishi lozim bo'ladi. Bu ham qarz hisoblanadi. Undan tashqari turli xil milliy va mahalliy xarakterga ega bo'lgan tadbirlar ham borki, unda ishtirok etmalik jamiyat tomonidan qattiq qoralanadi.Yana muhim jihat, bu savob uchun qilinadigan tadbirlar va ota- bobodan qolib kelayotgan tadbirlar merosini amalga oshirish. Bular uchun sarflanadigan barcha sarf-harajatlarni erkak o'z zimmasiga olish kerak. Negaki erkak topib keladi, ayol ro'zg'or ishlari bilan band. Buning ustiga, bolalar tarbiyasi, supur-sidir ishlari va har xil mayda-chuydalar.

Endi masalaning muhim tomoniga e'tiborimizni qaratamiz. Har qanday kishi qaysi korxona, tashkilot, idora yoki firmada ishlamasin biz yuqorida sanab o'tgan urf-odat va an'analar talabini to'liq uddalay olish imkoniyatiga ega emas. Ba'zan bir nechta davlat muassasida ishlab ham kishi o'ziga «yuklatilgan" talablarni bajara olmasligi mumkin. O'z imkoniyatlari chegaralangan erkak doimiy tavakkalchilik ichida yuradi. Jamiyatda belgilangan qonun va me'yorlardan chetga chiqishga majbur bo'ladi (deviant shaxs). Buning hammasi xavfli tavakkalchilik ekanligini u juda ham yaxshi his qiladi. Ammo "an'anaviy erkak funksiyasi" uni shu yo'lga majburan tortadi. U sira ham o'ziga "noshud" degan tamg'ani yopishtirilishini istamaydi. Uni olmaslik uchun ko'p harakat qilish kerak bo'ladi, juda ham ko'p harakat... Negaki, uni ma'lum bir vaqt o'tib o'z farzandlari ham aybdor qilishi mumkin, ya'ni noshudlikda ayblash. Xususan, farzandni boshqalarga nisbatan yomonroq yashashi, o'qishga kira olmasligi yoki yaxshi ishga joylasha olmaslik, o'z iste'dodi talabiga javob beradigan mavqega erisha olmaslik, xullas barchasi uchun "kimdir" aybdor bo'lishi kerak. Tabiiyki, bu o'z zimmasidagi

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

funksiyani bajara olmagan kishi bo‘lib qoladi.

Biroq, davr o‘zgardi, odamlar bozor iqtisodiyoti munosabatlarini anglay boshladilar. Ehtiyojlar va iste’mol qilish darajasining keskin oshib ketishi, o‘zbek jamiyati a’zolarining ham mentaliteti, hamda ongida muqim qotib qolgan stereotiplarni qaysidir darajada o‘zgarishiga olib keladi. Bu birinchi navbatda jamiyat, xususan, o‘zbek jamiyatida xotin- qizlarning faollashuvi bilan namoyon bo‘ldi. An’anaviy turmush tarzi hamma davrlarda bo‘lgani kabi yangilikka nisbatan qanchalik qattiq turib kurashishga harakat qilmasin, baribir ilg‘or axborot va turli zamonaviy texnologiyalarning ta’sir kuchiga bardosh bera olmaydi. Afsuski, buni o‘ta mutaassib an’anaviy kishilardan tashqari, ba’zan o‘zlarini davrimizning ilg‘or kishilari deb hisoblovchi ziyoli qatlam vakillari ham tushunishni istamaydilar. Oqibatda o‘zlari qattiq turib himoya qilayotgan g‘oyalari juda ham qisqa fursat, ya’ni 3-4 yil ichida asossiz bo‘lib chiqqanidan keyin ko‘pincha iztirob ichida qolib ketmoqdalar. Lekin, zamonaviy jamiyatning unchalik katta bo‘lmagan makon ichida tubdan o‘zgarish xususiyatiga ega ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, har qanday ziyoli tadqiqotchini“aybdor” deb hisoblashga o‘zini hurmat qilgan kishining haqqi yo‘q. Chunki, zamonaviy fan, hoh u tabiiy bo‘lsin, yoki ijtimoiy-gumanitar misli ko‘rilmagan sur’atda taraqqiy etmoqda. Biz tomonimizdan ma’ro’za sifatida taklif etilayotgan “gender” mavzusi bundan o‘n yillar oldin an’anaviy jamiyatlarda ko‘pchilikni deyarli qiziqtirmasdi, nafaqat qiziqtirish, hattoki, bizning jamiyatimizda uni tatbiq ham etib bo‘lmaydi, deguvchilar istagancha topilar edi. Bu masalaning bir tomoni, uning ikkinchi tomoni borki, u ham bo‘lsa «gender” bu faqat ayollar muammosini talqin etuvchi yo‘nalish sifatida qarab kelinar va G‘arb jamiyatlariga xos bo‘lgan “feminizm” harakati bilan chalkashtirilib yuborilardi. Aslida

“gender” – bu “jinslar tengligi” masalasini tahlil etuvchi yangi sohadir. Shunday qilib, biz ma’ruzamizning birinchi qismida o‘zbeklar jamiyatida mavjud bo‘lgan, ammo ko‘pincha yashirin tuyg‘u hisoblangan “erkak funksiyasi” to‘g‘risida gapirgan bo‘lsak, endi o‘zbek jamiyatida “ayol” yoki xotin-qizlar mavzusi xususida ham ayrim mulohazalarimizni bermoqchimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 1998 (keyingi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-561-son “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. Karimova V.M. Oila psixologiyasi: pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2007. – 316 b.
6. Karimova V.M., G‘oyibova N.A. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2022. – 232 b.
7. Shoumarov G‘.B. va boshq. Oila psixologiyasi: akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2008.
8. Akramova F.A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. – Toshkent: Shams ASA, 2006. – 90 b.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

9. Akramova F.A., Abdullayeva R.M. Oilaviy hayotga oid psixologik tavsiyalar. – Toshkent: Shams ASA, 2002. – 63 b.
10. Abdusattorova O.A. Oila muhitida o‘smirlarda shakllanadigan jinsiy identifikatsiyaning gender xususiyatlari: psixologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O‘zMU, 2007. – 22 b.
11. Salayeva M.S. O‘zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: psixologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zMU, 2005. – 198 b.
12. West C., Zimmerman D.H. Doing Gender // Gender & Society. – 1987. – Vol. 1, No. 2. – P. 125–151.
13. Bem S.L. The Lenses of Gender: Transforming the Debate on Sexual Inequality. – New Haven: Yale University Press, 1993.
14. Connell R.W. Gender. – Cambridge: Polity Press, 2002.
15. Bourdieu P. Masculine Domination. – Stanford: Stanford University Press, 2001.
16. Parsons T., Bales R.F. Family, Socialization and Interaction Process. – Glencoe, Illinois: Free Press, 1955.
17. Mead M. Sex and Temperament in Three Primitive Societies. – New York: William Morrow, 1935.
18. Giddens A. Sociology. – Cambridge: Polity Press, 2009.
19. UN Women. Uzbekistan: Country Fact Sheet. Gender Equality and Women’s Empowerment. – UN Women Data Hub.
20. Axmedova D.S. Zamonaviy jamiyatda oila, gender va urf-odatlar masalasi // Falsafa va Huquq jurnali. – 2026. – № 2 (36). – B. 192–194.